



FARG'ONA VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI



2024- yil yanvar –avgust oylari  
uchun dastlabki ma'umot

## FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi (73) 241-67-68



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2024-** yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 359,2 mln AQSH** dollariga yetdi va **2023-** yilning yanvar - avgust oylariga nisbatan **18,1 mln AQSH** dollariga yoki **1,3%** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar –avgust mln AQSH dollari)

### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **1 359,2+1,3 %**

(2023- y.: 1 341,1)



### Saldo

2024- y.: - **248,0**

(2023 y.: - 389,9)

### Eksport

2024- y.: **555,6 + 16,8 %**

(2023- y.: 475,6)



Tovarlar: **549,4**



Xizmatlar: **6,2**

### Import

2024- y.: **803,6 -7,2 %**

(2023- y.: 865,5)



Tovarlar: **801,7**



Xizmatlar: **1,9**











**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **555,6** mln AQSH dollariga (**16,8 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **803,6** mln AQSH dollariga (**7,2 %** ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida **-248,0** mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**FARG‘ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA  
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**  
(2024- yil yanvar-avgust, mln AQSH dollari)

<p><b>XXR</b></p> <p><b>TSA – 418,5</b></p> <p>Eksport: 27,0 Import: 391,5</p>  30,8 %	<p><b>Rossiya</b></p> <p><b>TSA – 395,5</b></p> <p>Eksport: 256,7 Import: 138,8</p>  29,1 %	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p><b>TSA – 127,3</b></p> <p>Eksport: 33,7 Import: 93,6</p>  9,4%	<p><b>Turkiya</b></p> <p><b>TSA – 81,1</b></p> <p>Eksport: 54,9 Import: 26,2</p>  6,0 %	<p><b>Qirg‘iz Respublikasi</b></p> <p><b>TSA – 73,2</b></p> <p>Eksport: 38,9 Import: 34,3</p>  5,4 %
<p><b>Afg‘oniston</b></p> <p><b>TSA – 38,9</b></p> <p>Eksport: 35,6 Import: 3,3</p>  2,9%	<p><b>Eron</b></p> <p><b>TSA – 29,6</b></p> <p>Eksport: 26,3 Import: 3,3</p>  2,2 %	<p><b>Tojikiston</b></p> <p><b>TSA – 19,3</b></p> <p>Eksport: 16,4 Import: 2,9</p>  1,4 %	<p><b>Turkmaniston</b></p> <p><b>TSA – 18,9</b></p> <p>Eksport: 14,5 Import: 4,4</p>  1,3 %	<p><b>Hindiston</b></p> <p><b>TSA – 15,7</b></p> <p>Eksport: 0,1 Import: 15,6</p>  1,2 %

Farg'ona viloyati jahonning **80** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**30,8** %), Rossiyada (**29,1** %), Qozog'istonda (**9,4** %), Qirg'iz Respublikasida (**5,4** %), Turkiyada (**6,0** %) va Afg'onistonda (**3,9** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston va Afg'anisron bilan **1,2** barobarga oshdi.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2024- yil yanvar-avgust, mln AQSH dollari)



Rossiya Federatsiyasi– 117,9



Turkiya – 28,7



Afg'oniston– 32,2













Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan o'n bitta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Turkiya va Rossiya Federatsiyasi shular jumlasidandir. Qolgan **9** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.













## FARG'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln AQSH dollari)


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 <b>XXR</b>	<b>314,0</b>	<b>384,1</b>	<b>418,5</b>
<i>Eksport</i>	48,1	27,1	27,0
<i>Import</i>	265,9	256,9	391,5
 <b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>385,4</b>	<b>373,5</b>	<b>395,5</b>
<i>Eksport</i>	218,7	218,4	256,7
<i>Import</i>	166,7	155,1	138,8
 <b>Qozog'iston</b>	<b>173,2</b>	<b>151,8</b>	<b>127,3</b>
<i>Eksport</i>	18,7	25,5	33,7
<i>Import</i>	154,4	126,2	93,6
 <b>Turkiya</b>	<b>119,4</b>	<b>64,4</b>	<b>81,1</b>
<i>Eksport</i>	74,5	33,3	54,9
<i>Import</i>	44,9	31,1	26,2
 <b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>77,6</b>	<b>74,5</b>	<b>73,2</b>
<i>Eksport</i>	42,1	38,8	38,9
<i>Import</i>	35,5	35,7	34,3
 <b>Afg'oniston</b>	<b>32,2</b>	<b>31,5</b>	<b>38,9</b>
<i>Eksport</i>	32,2	31,3	35,6
<i>Import</i>	-	0,2	3,3
 <b>Eron</b>	<b>21,3</b>	<b>24,8</b>	<b>29,6</b>
<i>Eksport</i>	18,1	21,9	26,3
<i>Import</i>	3,2	2,9	3,3
 <b>Tojikiston</b>	<b>21,8</b>	<b>28,9</b>	<b>19,3</b>
<i>Eksport</i>	14,1	20,4	16,4
<i>Import</i>	7,8	8,5	2,8
 <b>Turkmaniston</b>	<b>29,6</b>	<b>2,3</b>	<b>18,9</b>
<i>Eksport</i>	25,8	1,0	14,5
<i>Import</i>	3,8	1,3	4,4
 <b>Hindiston</b>	<b>17,3</b>	<b>18,1</b>	<b>15,7</b>
<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,1
<i>Import</i>	17,2	18,0	15,6



	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Belarus</b>	<b>9,6</b>	<b>15,6</b>	<b>15,6</b>
	<i>Eksport</i>	3,4	6,9	4,8
	<i>Import</i>	6,2	8,6	10,8
	<b>Polsha</b>	<b>31,4</b>	<b>18,4</b>	<b>12,6</b>
	<i>Eksport</i>	22,5	7,1	9,4
	<i>Import</i>	8,9	11,2	3,2
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>25,9</b>	<b>17,9</b>	<b>11,8</b>
	<i>Eksport</i>	2,9	0,4	0,4
	<i>Import</i>	23,0	17,5	11,4
	<b>Germaniya</b>	<b>17,5</b>	<b>16,2</b>	<b>10,6</b>
	<i>Eksport</i>	3,7	2,3	0,6
	<i>Import</i>	13,5	14,0	10,0
	<b>Italiya</b>	<b>10,1</b>	<b>12,3</b>	<b>10,5</b>
	<i>Eksport</i>	1,5	5,3	1,6
	<i>Import</i>	8,6	7,0	8,9
	<b>Gonkong</b>	<b>9,3</b>	<b>9,4</b>	<b>8,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	9,2	9,4	8,3
	<b>Litva</b>	<b>14,5</b>	<b>26,4</b>	<b>7,7</b>
	<i>Eksport</i>	1,0	8,8	5,8
	<i>Import</i>	13,5	17,6	1,9
	<b>Pokiston</b>	<b>6,2</b>	<b>5,7</b>	<b>7,4</b>
	<i>Eksport</i>	5,5	5,1	4,7
	<i>Import</i>	0,7	0,6	2,7
	<b>Latviya</b>	<b>1,8</b>	<b>5,4</b>	<b>6,0</b>
	<i>Eksport</i>	1,2	4,2	5,8
	<i>Import</i>	0,6	1,3	0,2
	<b>Ispaniya</b>	<b>3,1</b>	<b>4,3</b>	<b>3,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,9	0,1	0,4
	<i>Import</i>	2,2	4,2	3,2


## FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar -avgust, mln AQSH doll.)\*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 19,3 % ulush bilan 262,7 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa So'x tumani 0,5 % ulush bilan 6,8 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

## FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **48,3%** ni tashkil etidi.



Farg'ona viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasidagi ulush **51,7%** ni tashkil etdi.



Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, **656,0** mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **370,3** mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **285,7** mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## FARG'ONA VILOYATNING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-avgust, mln AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 395,5  
Eksport – 256,7  
Import – 138,8



### Qozog'iston

TSA – 127,3  
Eksport – 33,7  
Import – 93,6



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 73,2  
Eksport – 38,9  
Import – 34,3



### Belarus

TSA – 15,5  
Eksport – 4,7  
Import – 10,8



### Tojikiston

TSA – 19,2  
Eksport – 16,4  
Import – 2,8



### Ukraina

TSA – 2,5  
Eksport – 1,7  
Import – 0,8



### Turkmaniston

TSA – 187,9  
Eksport – 14,5  
Import – 4,4



### Ozarbajjon

TSA – 2,2  
Eksport – 2,0  
Import – 0,2



### Moldova

TSA – 1,1  
Eksport – 1,1  
Import – 0,0



### Armaniston

TSA – 0,4  
Eksport – 0,4  
Import – 0,0



Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**60,3 %**), Qozog'iston (**19,4 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**11,2 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

export →


## FARG‘ONA VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **632** taga yetdi va ular tomonidan **555,6** mln AQSH dollari (2023- yilning mos davriga nisbatan **16,8** % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.

### XSST\* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust, ulushi % da)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o‘rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o‘rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo‘yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	MIn AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>475,6</b>	<b>555,6</b>	<b>82,1</b>	<b>116,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	206,7	246,6	120,8	119,3	43,5	44,4
Ichimliklar va tamaki	1,2	0,9	124,6	76,2	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	17,7	16,4	70,9	92,7	3,7	2,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,8	2,8	28,4	102,4	0,6	0,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,2	12,6	14 m.	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	20,1	49,7	54,4	2,5 m.	4,2	8,9
Sanoat tovarlari	164,7	180,6	57,5	109,6	34,6	32,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	4,0	4,3	86,9	106,8	0,8	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	53,8	48,0	139,5	89,2	11,3	8,6
Xizmatlar	4,6	6,2	74,7	134,2	1,0	1,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **85,5 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**32,5 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**44,4 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**8,6 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust)

XSST bo'limi nomi	MIn AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>246,6</b>	<b>119,3</b>
Sabzavotlar va mevalar	217,2	127,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	26,5	83,0
Tirik hayvonlar	1,3	11 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,1	27,0
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>0,9</b>	<b>76,2</b>
Ichimliklar	0,8	73,5
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,1	4,9 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>16,4</b>	<b>92,7</b>
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	11,4	157,2
Metal rudalar va metal parchalari	0,6	83,1
Qog'oz massasi va makulatura	2,3	30,3
Xayvonlar va usimliklardan kelib chikkan xom-ashyo materiallari, boshka joyda tasniflanmagan	0,7	121,5
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,8	89,0
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	0,4	147,2
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>2,8</b>	<b>102,4</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2,5	91,0
Ko'mir, koks va briketlar	0,3	18 m.
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash Mahsulotlar</b>	<b>49,7</b>	<b>2,5 m.</b>
Noorganik kimyo moddalari	6,2	3,2 m.
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	1,2	90,0
O'g'itlar	40,1	3,3 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,4	12,1
Bo'yoqlar	1,6	189,8




XSST bo'limi nomi	MIn AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>180,6</b>	<b>109,6</b>
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	158,6	107,6
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	1,2	32,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	14,4	132,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2,3	157,7
Probka va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	3,4	3,3 m.
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar	0,5	6,4 m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>	<b>4,3</b>	<b>106,8</b>
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,8	75,1
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari)	1,4	86,8
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	1,6	154,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,5	4,5 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>48,0</b>	<b>89,2</b>
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	38,6	90,7
Har xil tayyor buyumlar	4,7	117,4
Poyabzal	2,4	47,9
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1,3	105,9
Modulli binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlagichlar, boshqa toifalarga kiritilmagan	0,5	97,2
Mebel va uning qismlari	0,2	48,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	0,3	32 m.



O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

2024- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga **0,4 %** ga kamaydi. *(yanvar-avgust, mln AQSH dollari, ulushi, % da)*



2024- yil yanvar-avgust oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, XXR, Afg'oniston, Eron va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **85,2 %** ni tashkil etdi.



## FARG'ONA VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






## FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	218,4	256,7	99,9	117,6	1	1
Turkiya	33,3	54,9	44,7	164,6	3	2
Qirg'iz Respublikasi	38,8	38,9	92,0	100,4	2	3
Afg'aniston	31,3	35,6	97,2	113,8	4	4
Qozog'iston	25,5	33,7	136,4	131,9	6	5
XXR	27,1	27,0	56,4	99,5	5	6
Eron	21,9	26,3	121,5	120,3	7	7
Tojikiston	20,4	16,4	144,6	80,7	8	8
Turkmaniston	1,0	14,5	3,9	14 m.	23	9
Polsha	7,1	9,4	31,8	131,9	10	10
Latviya	4,2	5,8	3,6 m.	140,6	14	11
Litva	8,8	5,8	8,7 m.	65,9	9	12
Belarus	6,9	4,8	2,0 m.	68,8	11	13
Pokiston	5,1	4,7	93,3	92,4	13	14
Misr	0,4	2,8	3,8	6,6 m.	29	15
BAA	0,8	2,1	117,9	2,6 m.	25	16
Ozərbayjon	2,6	2,1	2,5 m.	80,1	15	17
Ukraina	2,5	1,7	103,8	68,8	16	18
Italiya	5,3	1,6	3,5 m.	30,4	12	19
Moldova Respublikasi	1,0	1,1	162,0	104,8	22	20

## FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, mln AQSH doll.)\*

Eng yuqori hajm,  
mln AQSH dollari



2023- y.

2024- y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Oltiariq tumani **21,1 %** ulush bilan **117,2** mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa So'x tumani **0,5%** ulush bilan **3,0** mln AQSH dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-avgust oylarida **280,4** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan **5,1 %** ga kamaydi yoki **15,1** ming tonnaga kamaydi.

2024- yil yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **216,7 mln** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan **27,8 %** ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **39,0 %** ni tashkil etdi.









### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-avgust, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Uzum</b></p> <p>22,5 mln AQSH dollari</p> <p>23,8 ming tonna</p> <p> 58,5 % ↑</p>	<p><b>Qashqar gilos</b></p> <p>39,0 mln AQSH dollari</p> <p>19,4 ming tonna</p> <p> 49,0 % ↑</p>	<p><b>Karam</b></p> <p>7,7 mln AQSH dollari</p> <p>24,4 ming tonna</p> <p> 2,0 m. ↑</p>	<p><b>O'rik</b></p> <p>37,8 mln AQSH dollari</p> <p>41,5 ming tonna</p> <p> 84,7 % ↑</p>
<p><b>Pomidor</b></p> <p>6,1 mln AQSH dollari</p> <p>6,6 ming tonna</p> <p> 40,4% ↓</p>	<p><b>Sabzi</b></p> <p>3,9 mln AQSH dollari</p> <p>16,0 ming tonna</p> <p> 3,4 m. ↑</p>	<p><b>O'lxo'ri</b></p> <p>9,6 mln AQSH dollari</p> <p>12,4 ming tonna</p> <p> 84,2 ↑</p>	<p><b>Shaftoli</b></p> <p>52,3 mln AQSH dollari</p> <p>47,2 ming tonna</p> <p> 50,5 % ↑</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar - avgust)



Davlatlar	ming tonna	mln AQSH dollari	ulushi, % da *
 Rossiya Federatsiyasi	188,1	164,6	75,9
 Qozog'iston	46,2	22,2	10,2
 Qirg'iz Respublikasi	35,9	21,2	9,8
 XXR	2,5	2,2	1,0
 Belarus	2,1	1,7	0,8
 Boshqalar	5,6	4,9	2,2

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (75,9 %), Qozog'iston (10,2%) hamda Qirg'iz Respublikasi (9,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.







## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI




So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha **196,5 mln** AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **35,4 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **3,7 %** ga ko'paydi. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxta ip (**64,5 %**), trikotaj mato (**4,4%**) va tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**19,4 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **135** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **43** ta davlatiga eksport qilindi.

### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar -avgust, mln AQSH dollari)



## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI *(yanvar-avgust, mln AQSH dollari)*

		2023- yil	2024- yil	O‘shish sur‘ati, %da *
	Rossiya Federatsiyasi	66,4	66,2	99,8
	Turkiya	27,8	47,8	172,1
	Eron	21,7	26,3	121,2
	XXR	25,8	24,1	93,2
	Polsha	4,7	7,7	162,4
	Misir	0,4	2,8	659,7
	Belarus	4,7	2,7	57,7
	Pokiston	0,0	2,5	-
	Qirg‘iz Respublikasi	12,1	2,3	18,8
	Italiya	5,3	1,6	30,4
	Ukraina	1,6	1,3	80,2
	Moldova Respublikasi	0,6	1,1	171,8
	Ozarbayjon	2,0	1,0	47,2
	Qozog‘iston	2,0	0,9	44,7
	Boshqa davlatlar	14,3	8,2	57,3



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozorida ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya (33,7% – 66,2 mln AQSH dollari) va Turkiya (24,3 % – 47,8 mln AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust ulushi, % da)



Transport xizmatlari 56,4 %



Moliyaviy xizmatlar 24,8 %



Safarlar (turizm) 11,7 %



Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari 7,0 %



Xizmatlar eksporti hajmi **6,2** mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **1,1** % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **34,2** % ga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**11,7**%), transport (**56,4** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**7,0** %) va moliyaviy xizmatlar (**24,8** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## FARG'ONA VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi **803,6** mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan **92,8** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**33,8** %), sanoat tovarlari (**24,8** %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**12,9** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **61,8** mln AQSH dollariga kamaydi va **801,7** mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **1,9** mln AQSH dollariga yetdi.





## FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>865,5</b>	<b>803,6</b>	<b>106,0</b>	<b>92,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	139,0	103,4	121,6	74,3	16,1	12,9
Ichimliklar va tamaki	0,9	2,1	114,9	2,4 m.	0,1	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	28,6	25,3	100,6	88,7	3,3	3,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	83,1	115,5	56,4	139,0	9,6	14,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	7,4	7,5	2,1 m.	100,7	0,9	0,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	68,1	48,8	147,0	71,7	7,9	6,1
Sanoat tovarlari	191,2	199,1	110,4	104,2	22,1	24,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	320,9	271,6	116,2	84,6	37,1	33,8
Turli xil tayyor buyumlar	24,3	28,4	97,8	116,8	2,8	3,5
Xizmatlar	2,0	1,9	108,6	97,5	0,2	0,2





## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust)

XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>103,4</b>	<b>74,3</b>
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	61,2	59,3
Tirik hayvonlar	5,5	57,3
Sabzavotlar va mevalar	17,8	159,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7,1	107,2
Go'sht va go'sht mahsulotlari	4,9	2,8 m.
Hayvonlar uchun ozuqa (tegirilmagan dondan tashqari)	2,5	62,6
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	2,1	3,7m.
Turli xil oziq ovqatli mahsulotlari	1,1	137,8
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>2,1</b>	<b>2,4 m.</b>
Ichimliklar	2,1	2,4 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>25,3</b>	<b>88,7</b>
56 bulimga kiritilgandan tashqari ug'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va kimmatbaxh toshlardan tashqari)	10,3	146,0
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato xolatiga keltirilmagan)	0,5	14,3
Probka va yog'och	10,7	71,3
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	2,8	4,1 m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>115,5</b>	<b>139,0</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	84,7	126,1
Ko'mir, koks va briketlar	29,3	184,7
Gaz, tabiiy va sun'iy	1,4	30 m.
<b>Xayvonlar va usimliklar moylari (yog'lari), yoglar va mumlar</b>	<b>7,5</b>	<b>100,7</b>
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	7,4	101,2
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,1	34,3
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>48,8</b>	<b>71,7</b>
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	7,3	121,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	9,4	62,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	7,2	54,7
Noorganik kimyo moddalari	4,7	69,5
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	6,3	196,9


XSST bo'limi nomi	Mln AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>199,1</b>	<b>104,2</b>
Cho'yan va po'lat	85,4	136,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	28,9	137,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	28,3	70,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	6,1	59,9
Probka va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	17,9	112,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	16,9	106,6
Rangli metallar	4,9	65,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	10,8	59,8
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>	<b>271,6</b>	<b>84,6</b>
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	2,6	64,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	61,6	47,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	43,3	76,1
Avtomobillar	52,9	66,5
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	91,8	2,9 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	8,4	119,1
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun uskunalar va uskunalar	9,1	126,5
Metallni qayta ishlash mashinalari	1,8	34,8
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>28,4</b>	<b>116,8</b>
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	8,8	140,4
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	10,3	104,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5,2	192,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	1,2	144,8
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	1,3	50,1
Poyafzal	0,9	97,4
Kiyim-kechak buyumlari va kiyim-kechak aksessuarlari	0,5	71,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunalar, sarf	0,1	41,9



2024-yil yanvar-avgust natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **35,6 %** ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **3,3%** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar – avgust oylarida Farg'ona viloyati **63** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Koreya Respublikasi va Hindiston) bo'lib jami importdagi ulushlari **88,5 %** tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






## FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

Davlatlar	MIn AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
XXR	356,9	391,5	134,2	109,7	1	1
Rossiya	155,1	138,8	93,0	89,5	2	2
Qozog'iston	126,2	93,6	81,7	74,1	3	3
Qirg'iz Respublikasi	35,7	34,3	100,7	96,0	4	4
Turkiya	31,1	26,2	69,2	84,2	5	5
Hindiston	18,0	15,6	104,1	86,9	6	6
Koreya Respublikasi	17,5	11,4	76,1	64,8	8	7
Belarus	8,7	10,8	140,4	124,2	12	8
Germaniya	14,0	10,0	103,3	71,5	9	9
Italiya	7,1	8,9	81,8	126,6	15	10
Gonkong	9,4	8,3	102,1	88,1	11	11
Turkmaniston	1,3	4,4	34,6	3,3 m.	26	12
Afg'aniston	0,2	3,3	12 m.	14 m.	43	13
Eron	2,9	3,3	90,1	112,7	20	14
Ispaniya	4,2	3,2	196,1	74,3	16	15
Polsha	11,2	3,1	125,9	28,0	10	16
Shveytsariya	8,4	3,1	184,3	37,4	14	17
Yaponiya	0,7	3,0	10,5	4,6 m.	30	18
Tojikiston	2,3	2,9	94,0	128,1	13	19
Pokiston	8,5	2,8	110,2	33,3	32	20



## FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-avgust, mln AQSH doll.)\*



2023- y.

2024- y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi importi tarkibida eng yuqori ulushni Farg'ona shahar **25,9 %** ulush bilan **208,3** mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Rishton tumani **0,3 %** ulush bilan **2,2** mln AQSH dollarini tashkil etdi.






## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2024- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **271,6** mln AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **15,4** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **33,8** % ga yetdi.



## MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust)



XXR  
204,4 mln  
AQSH. dollari



Tyrkiya  
10,7 mln  
AQSH. dollari



Hindiston  
9,9 mln.  
AQSH. dollari



Germaniya  
7,1 mln  
AQSH. dollari




2024-yil yanvar-avgust oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **49,3** mln AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Farg'ona viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **204,4** mln AQSH dollari (**75,3** %), Hindiston — **9,9** mln AQSH dollari (**3,6** %) va Turkiya— **10,7** mln AQSH dollari (**3,9** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **199,1** mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,2** % ga o'sdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **24,8** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)

XXR 66,4%

132,2 mln  
AQSH doll.



Gonkong 4,1 %

8,1 mln  
AQSH doll.



Rossiya 11,2%

22,3 mln  
AQSH doll.



Belarus 3,9 %

7,9 mln  
AQSH doll.



Qozog'iston 4,7 %

8,1 mln  
AQSH doll.



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki po'lat (**85,4** mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**28,9** mln AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**28,3** mln AQSH dollari), qog'oz va karton (**6,1** mln AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.